



UDK: 101.1:316.75:124.5

Davron Z. KAMILOV,
PhD, dotsent, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: davrvkamil02@gmail.com, ORCID: 0000-0003-4136-601X

Professor, f.f.d. N.Shermuhammedova taqrizi asosida

ANALITIK FALSAFA AN'ANASIDA "TAHLIL" KONSEPSIYASINING METODOLOGIK VA KOGNITIV AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr analitik falsafasi an'anasida "tahlil" (analiz) konsepsiyasining metodologik va kognitiv mohiyati tadqiq etilgan. J.E. Mur, G. Frege, R. Karnap va B. Rassel kabi mutafakkirlarning qarashlari qiyosiy o'rganilib, bilish jarayonidagi "tahlil paradoksi", denotat va ma'no munosabati hamda eksplikatsiya muammolari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida tahlil shunchaki tushunchalarni qismlarga ajratish emas, balki dogmatik qarashlarni qayta baholovchi, til va mantiq aloqadorligini ta'minlovchi hamda tanqidiy tafakkur uchun zarur kognitiv sharoit yaratuvchi muhim falsafiy-metodologik faoliyat ekani asoslangan.

Kalit so'zlar: Analitik falsafa, tahlil konsepsiyasi, tahlil paradoksi, eksplikatsiya, tanqidiy tafakkur, kognitiv jarayon, metodologiya.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ И КOGНИТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ КОНЦЕПТА «АНАЛИЗ» В ТРАДИЦИИ АНАЛИТИЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация

В данной статье исследуется методологическая и когнитивная сущность концепта «анализ» в традиции аналитической философии XX века. На основе сравнительного изучения взглядов таких мыслителей, как Дж.Э. Мур, Г. Фреге, Р. Карнап и Б. Рассел, раскрываются «парадокс анализа», соотношение денотата и смысла, а также проблема экспликации в процессе познания. В результате исследования обосновывается, что анализ – это не просто расчленение понятий, а важная философско-методологическая деятельность, переоценивающая догматические взгляды, обеспечивающая связь языка и логики, а также создающая необходимые когнитивные условия для формирования критического мышления.

Ключевые слова: Аналитическая философия, концепт анализа, парадокс анализа, экспликация, критическое мышление, когнитивный процесс, методология.

METHODOLOGICAL AND COGNITIVE SIGNIFICANCE OF THE CONCEPT OF "ANALYSIS" IN THE TRADITION OF ANALYTIC PHILOSOPHY

Annotation

This article investigates the methodological and cognitive essence of the concept of "analysis" within the tradition of 20th-century analytic philosophy. By comparatively studying the views of thinkers such as G.E. Moore, G. Frege, R. Carnap, and B. Russell, the study highlights the "paradox of analysis", the relationship between denotation and meaning, and the problem of explication in the cognitive process. As a result of the research, it is substantiated that analysis is not merely the division of concepts into parts, but a crucial philosophical and methodological activity that re-evaluates dogmatic views, ensures the connection between language and logic, and creates the necessary cognitive conditions for critical thinking.

Key words: Analytic philosophy, concept of analysis, paradox of analysis, explication, critical thinking, cognitive process, methodology.

Kirish. Falsafiy tafakkur tarixida "tahlil" (analiz) tushunchasi uzoq vaqt davomida bilishning asosiy metodologik vositalaridan biri sifatida qarab kelingan. Klassik falsafada u ko'proq murakkab obyekt yoki tushunchalarni sodda tarkibiy qismlarga ajratish usuli sifatida talqin qilingan bo'lsa, XX asrga kelib bu yondashuv o'zining yetarli emasligini ko'rsatgan. Ilm-fan, matematika va mantiqning shiddat bilan rivojlanishi hamda falsafadagi "lingvistik burilish" natijasida G'arbda shakllangan analitik falsafa an'anasi tahlil kategoriyasiga mutlaqo yangicha kognitiv va metodologik maqom bergan.

Analitik falsafa doirasida tahlil faqatgina butunni qismlarga bo'lish emas, balki inson ongi, til va mantiq o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish, dogmatik va noaniq tushunchalarni aniqlashtirish hamda haqiqatni asoslash vositasi sifatida namoyon bo'lgan. Xususan, tushunchalarni ta'riflash va ularning mantiqiy hajmini aniqlash jarayonida yuzaga keladigan "tahlil paradoksi", denotat va

ma'no o'rtasidagi ziddiyatlar kabi masalalar faylasuflar oldidagi eng dolzarb metodologik jumboqlarga aylangan.

XX asrda J.E. Mur, G. Frege, R. Karnap va B. Rassel kabi yirik mutafakkirlar tahlilning tabiati va funksiyalari borasida turlicha pozitsiyalarni ilgari surgan bo'lsalar-da, ularning izlanishlari falsafiy metodologiyani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqan. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi – analitik falsafa an'anasida "tahlil" konsepsiyasining metodologik va kognitiv ahamiyatini tadqiq etish, mazkur jarayonning muayyan tushunchalarni eksplikatsiya qilish hamda tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi konseptual o'rnini falsafiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.

Mavzuva oid adabiyotlar tahlili. Analitik falsafada "tahlil" tushunchasi va uning kognitiv-metodologik tabiati qator faylasuf va mantiqshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, tahlilning mantiqiy va lingvistik asoslari dastlab J.E. Mur, G. Frege, B. Rassel va R. Karnap kabi analitik

falsafa asoschilarining fundamental asarlarida ishlab chiqilgan. J.E. Mur va K.H. Lengford o'rtasidagi bahslarda yuzaga kelgan "tahlil paradoksi" muammosi keyinchalik M.G. Uayt va A. Cherch tomonidan mantiqiy semantika nuqtai nazaridan chuqur o'rganilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa bu muammo yangi kognitiv nuqtai nazardan talqin qilinmoqda. Jumladan, rossiyalik olim V.V. Gorbatov tahlil paradoksi va Fregening ma'no va denotat haqidagi qarashlarini tahlil qilgan bo'lsa, g'arb tadqiqotchilari J. Neydo va L. Elkindlar R. Karnapning "eksplikatsiya" usulini hamda B. Rassel metodologiyasini konseptual injiniring jihatidan baholaganlar.

Shunday bo'lsa-da, milliy falsafiy adabiyotlarimizda tahlil kategoriyasining aynan G'arb analitik falsafasidagi evolutsiyasi, undagi paradoksal jihatlar va ularning tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi metodologik o'rni hanuzgacha yaxlit tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa mazkur maqolada ko'tarilgan muammoning ilmiy dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analitik falsafa an'anasidagi "tahlil" (analiz) tushunchasi tarixiylik tamoyili va qiyosiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil etiladi. Ushbu yondashuv tahlil metodining J.E. Murdan boshlab to B. Rasselgacha bo'lgan nazariy tadrijiy yo'lini va metodologik o'zgarishlarini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, mantiqiy-semantik va konseptual tahlil usullari asosida "tahlil paradoksi", ma'no va denotat munosabatlari aniqlanadi, uning noaniq tushunchalarni "eksplikatsiya" qilishdagi o'zaro nisbati oydinlashtiriladi. Shuningdek, tahlilning bilishdagi funksiyasi turli mantiqiy xulosalar va faylasuflarning paradoksal mulohazalarini sharhlash doirasida germeneytik va kognitiv yo'nalishda ochib berilgan. Bu esa tahlilni nafaqat tushunchalarni qismlarga ajratuvchi nazariy konstruktsiya, balki insonning til va mantiq asosidagi obyektiv bilish darajasini belgilovchi, tanqidiy tafakkurni shakllantiruvchi gnoseologik mexanizm sifatida baholash uchun xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. XX asrda shakllangan analitik falsafa an'ansi doirasida tahlilning klassik talqinidan farqli yangi metodologik konsepsiyalari ishlab chiqildi. Mazkur an'ananing yirik vakillaridan biri bo'lgan ingliz faylasufi Jorj Edvard Mur tahlilni verbal ifodalarni sharhlash, ya'ni so'zni tilshunoslik nuqtai nazardan tekshirish va izohlash sifatida emas, balki tushuncha, hukm yoki g'oyaning ichki mazmunini ochishga qaratilgan usul sifatida talqin qilib, "tahlil qilinayotgan narsa verbal ifoda emas, u har doim g'oya, tushuncha yoki hukmni ifodalaydi" [8], deb ta'kidlagan. Uning fikricha, "tushunchani ta'riflash – bu aslida uni tahlil qilishning aynan o'zidir. Ammo so'zni ta'riflashga kelsak, bu usulda so'zni ham, u ifodalaydigan tushunchani ham tahlil qilib bo'lmadi" [8]. E.Mur o'z g'oyasini quyidagi misol orqali ochib bergan: "Aka-uka bo'lish" tushunchasi "erkak jinsiga mansub sibilning (ota-onasidan kamida biri umumiy bo'lgan erkak farzand)" tushunchasiga tengdir. Aytish kerakki, men bu hukmni bildirish orqali "aka-uka bo'lish" tushunchasining tahlilini beryapman, agar men aytgan hukm chin bo'lsa, u holda men mazkur tushunchani to'g'ri tahlil qilgan bo'laman. Ammo men aynan shu tushunchaning tahlilini boshqacha tarzda ifodalashim ham mumkin: "X – aka-ukadir" degan propozitsional funksiya "X – erkak jinsiga mansub sibilningdir, (ota-onasidan kamida biri umumiy bo'lgan erkak farzand)", degan propozitsional funksiya bilan ayniydir" [8]. Biroq uning ushbu yondashuvini amerikalik faylasuf Kupper Harold Lengford tanqid qilgan va uning bu g'oyasi "tahlil paradoksi"ni keltirib chiqarishini ta'kidlagan. K.Lengford "Agar analizandum (tahlil qilinayotgan tushuncha)ni ifodalovchi verbal ifoda analizans (tahlil qiluvchi)ni ifodalovchi verbal ifoda bilan bir xil ma'noga ega bo'lsa, u holda tahlil faqat

ayniylikni ifodalaydi hamda trivial bo'lib qoladi. Basharti bu ikki verbal ifoda bir xil ma'noni anglatmasa, unda tahlil noto'g'ri bo'ladi" [7], deb ta'kidlagan. Bu paradoks tahlilning yangi bilim berish va muayyan tushunchaning ichki mazmunini ochish kabi funksiyasini shubha ostida qoldirgan.

Ayni paytda K.Lengfordning "tahlil paradoksi" borasidagi tanqidlariga E.Mur o'z munosabatini bildirib, "men ushbu paradoksning yechimi aslida nimadan iborat ekanini aniq bilmayman" [8; 665-b.], deb e'tirof etgan. Shunday bo'lsa-da, u muayyan tushunchani tahlil qilish uchun quyidagi uchta shartga e'tibor qaratishni taklif qilgan. Uning fikricha: "a) analizandum ham, analizans ham tushuncha bo'lishi shart va agar tahlil to'g'ri bo'lsa, ular ma'lum ma'noda ayni bir xil tushuncha bo'lishi kerak; b) analizandum uchun qo'llanilgan ifoda analizans uchun qo'llanilgan ifodadan farqli bo'lishi shart; c) analizandum uchun qo'llanilgan ifoda analizansdan nafaqat farq qilishi kerak, balki analizans uchun qo'llanilgan ifoda (so'zlar to'plami) orqali analizandumni ifodalalmagan tushunchalarni ochiq ko'rsatib berishi kerak" [8; 666-b.]. Darhaqiqat, mazkur paradoks tahlilning tabiati haqidagi asosiy metodologik jumboq sifatida mantiqqa oid qator tadqiqotlar doirasida bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Bu esa tahlil borasidagi turli talqinlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratgan. Ba'zi faylasuflar analizandum va analizans bir xil predmetni va xususiyatni ifodalasa-da, ularning ma'no ifodalash shakli farq qiladi deb izoh berganlar. Ular bu ziddiyatli yondashuviga analitik falsafaning yana bir yirik namoyandasi Gotlob Frege o'zining 1892-yildagi "Ma'no va denotat haqida"gi maqolasida "tahlil paradoksi" deb alohida munosabat bildirgan.

G.Frege tahlilni so'zlarning real borliqdagi predmet, hodisa va vaziyatni ifodalovchi "denotat"i va ularning ongimizda aks etgan obrazi bo'lgan "ma'no"si nuqtai nazaridan asoslagan. U o'z fikrini quyidagi misol orqali izohlagan: "Mark Tven – bu Semyuel Klemensdir" mulohazasi "Mark Tven" va "Semyuel Klemens" aynan bir insonni anglatganda chin hisoblanadi. Demak, "A = B"ning chinligini ikki tomonda turgan ifodalarning aynan bir obyektni anglatishini talab qiladi" [11]. G.Frege "A = B" formulasining chinlik sharti "A=A" formulasining chinlik shartidan farqlanmasligiga e'tibor qaratgan. "Mark Tven = Mark Tven" va "Mark Tven = Semyuel Klemens" mulohazalari tashqi dunyodagi aynan bir dalilga tayangani tufayli ular bir xil qiymatga ega hisoblanadi. Ushbu misol Mark Tven aslida Semyuel Klemensning taxallusi ekanini bilmaganlar uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. G.Frege mazkur misol orqali real borliqda Mark Tven ham, Semyuel Klemens ham bir shaxsni ifodalovchi bir denotatdan iborat ekanini asoslagan. Har ikki nomning egasi bo'lgan kishi reallikda bir shaxsni ifodalasa ham uning inson ongidagi kognitiv ahamiyati ikki xil ma'noga ishora qiladi. Shu asosda G.Frege "Mark Tven = Mark Tven" yangi bilim bera olmasligini, "Mark Tven = Semyuel Klemens" mulohazasi esa Mark Tvenni faqat yozuvchi sifatida bilgan kishi uchun uning asl ismi Semyuel Klemens bo'lgani haqida mantiqiy va tushunchaga oid yangi bilim bera olishini nazariy jihatdan isbotlagan.

Rossiyalik faylasuf Viktor Viktorovich Gorbatov G.Fregening fikrlariga baho berib, o'zining dastlabki maqolalarida ta'riflar va ta'riflanayotgan ifodalarning ma'nosini albatta saqlab qoladi, deb qaragan bo'lsa, keyingi maqolalarida avvalgi fikrlaridan farqli ravishda u ayrim ta'riflarda, ya'ni ma'nosi bevosita "aniq-ravshan" bo'lmagan ta'riflarda definiendum va definiensning ma'nosi farqli bo'lishi mumkinligini e'tirof qiladi [1]. U o'z mulohazasini G.Fregening "Mantiq va matematika" nomli asaridagi quyidagi iqtibosdan foydalanish bilan asoslagan: "Mantiqiy qismlarga ajratishdan keyin jumlaning tashqi matni avvalgidek saqlanib

qoladi. Ammo uning ifodalagan mazmuni avvalgidek qoladimi yoki yo'qmi – bu bahslidir. [...] Fikrimcha, buni faqat ma'no bevosita aniq bo'lgan taqdiridagina tasdiqlash mumkin. Bunday holatda esa aksioma bilan ish ko'rilayotgan bo'ladi" [3]. Ushbu xulosalar G.Fregening tahlil bu so'zlarni almashtirish emas, murakkab ma'noning tarkibiy qismlarga ajratish orqali nazariyani isbotlash imkoniyatlarini kengaytirishga yo'nalgan mantiqiy jarayon ekanidan dalolat beradi.

Shuningdek, amerikalik mantiqshunos Alonzo Cherkh ma'no va denotat borasidagi G.Fregening talqinlarini takomillashtirgan bo'lsa [4], yana bir amerikalik faylasuf Morton Gabriel Uayt G.Frege va A.Cherkhning mulohazalarini qiyosiy tadqiq qilgan [10]. Amerikalik faylasuf Rudolf Karnap esa tahlil muammosini "analizandum-analizans" juft tushunchalarini "eksplikandum-eksplikatum" tushunchasi orqali aniq ifodalashni taklif qilgan. U bunday yondashuv asosida o'z e'tiborini teng ma'noni ifodalashga emas, balki noaniq tushunchani aniq tushuncha vositasida izohlashga qaratgan. Uning fikricha, "Eksplikandum kundalik til yoki til taraqqiyotining avvalgi bosqichiga mansub bo'lishi mumkin. Eksplikatum esa uni qo'llashning aniq qoidalari, masalan, uni mantiqiy-matematik yoki empirik tushunchalari mukammal qurilgan ilmiy tizimga integratsiya qiluvchi ta'rif orqali ifodalanishi shart" [5]. Tafakkur taraqqiyoti shundan dalolat beradiki, kundalik va noaniq tushunchalarni abstrakt hamda aniq kategorial shaklga keltirish jarayonidan iborat. Shu ma'noda eksplikatsiya – bu tilga oid me'yorlarni aniqlashtirish emas, balki obyekt haqidagi bilimning aniq hamda to'liq darajasini oshiruvchi gnoseologik mexanizmdir.

Gongkong universiteti tadqiqotchisi Jennifer Neydo o'z tadqiqotida R.Karnapning eksplikatsiya borasidagi qarashlarini tadqiq etib, uning muvaffaqiyatli eksplikatsiyaga qo'yilgan talabi sifatida "dastlabki tushunchaga o'xshashlik, aniqlik, samaradorlik va soddalik"ni sanab o'tgan [9; 3-b.]. Chindan ham R.Karnap tahlilni noaniq tushunchani aniq va ilmiy tushuncha bilan almashtirish sifatida talqin qilgan hamda eksplikatsiya muammosini hal etish uchun "Biz uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini qat'iy va aniq tarzda hal qila olmaymiz. Bu o'rinda yechim to'g'rimi yoki noto'g'rimi, degan savolning o'zi noo'rin, chunki bu savolga keskin va qat'iy javob mavjud emas", deb ta'kidlagan [5; 4-b.]. Demak, R.Karnap tahlilni haqiqatni kashf etuvchi jarayon emas, balki samaralar va qoniqarli yechimlar taqdim etish sifatida talqin qilgan. Uning tahlil borasidagi mulohazalar va paradoksal vaziyatning yechimiga qaratilgan xulosalar til, ma'no va tushuncha o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini namoyon etgan.

Britaniyalik mantiqshunos va matematik Bertran Rassel falsafiy muammolarning aksariyat qismi til va mantiq aloqadorligiga bog'liq ekanini alohida ta'kidlagan va biz uning fikriga qo'shilamiz. U "asta-sekin falsafaning katta qismini "sintaksis" deb ataluvchi sohaga keltirish mumkinligi ma'lum bo'la boshladi. Ammo bu so'zni bu o'rinda odatdagi ma'nosidan kengroq mazmunda qo'llash lozim. Ayrim olimlar, xususan, Karnap barcha falsafiy muammolar aslida sintaktik xususiyatga ega, degan nazariyani ilgari suradilar. Uning fikriga ko'ra, agar sintaksisda xatolarga yo'l qo'yilmasa, istalgan falsafiy muammo sintaksis yordamida hal etiladi yoki uning yechimi yo'qligi ko'rsatiladi. Nazarimda, (hozir) ushbu mulohaza biroz mubolag'ali ekaniga Karnapning o'zi ham qo'shilgan bo'lardi. Shunday bo'lsa-da, an'anaviy muammolarga yechim berishda falsafiy sintaksisning amaliy ahamiyati juda katta ekanligiga hech qanday shubha yo'q" [2; 1013-b.], deb o'z metodologik pozitsiyasini himoya qilgan.

Biz, B. Rasselning "sintaksis" tahlilni mutlaqlashtiruvchi nazariyalarga tanqidiy yondashuvini asosli deb baholaymiz. Bizning fikrimizcha, bilish jarayonining muqarrar ravishda til, mantiqiy konstruksiyalar va abstraktlash metodlarining imkoniyatlariga qaram bo'lib qolishi inson tafakkurining borliqni anglashdagi mantiqiy cheklanganligidan ham dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy analitik falsafa bo'yicha tadqiqotchi Lendon Elkind "B.Rassel falsafiy tadqiqotlarining boshlang'ich nuqtasi bizga haqiqat bo'lib ko'rinadigan hukmlar majmuidan iborat. Shu bois ular dastlabki ma'lumotlar sifatida qabul qilinadi", degan fikri asoslidir [6; 458-b.]. Uning fikricha, "Rasselga xos metodologiya ushbu boshlang'ich e'tiqodlarni – ular "har doim ma'lum darajada noaniq va ikki ma'noli" bo'lgani, o'zining tushunchaviy aniqligi va ravshanligi tufayli shubha qilib bo'lmaydigan narsalar bilan almashtirishni talab qiladi" [6; 458-b.]. Ushbu metodologik yondashuv tahlilni faqat tushunchani qismlarga bo'lish, uni mos ravishda tavsiflash emas, balki uning tub mohiyati dastlabki bilim, e'tiqod va tasavvurlarning noaniq mazmunini qayta baholash bilan bog'liq falsafiy faoliyat sifatida tushunish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, B.Rassel tahlilning ahamiyatini faqat mantiqiy aniqlikni ta'minlash bilan cheklamagan. U tahlil jarayonini falsafiy tafakkurning erkinligi va fikriy chegaralarni kesib o'tish bilan ham bog'lagan. U haqiqiy faylasuf har qanday taxminni tekshirishga tayyor bo'lishi kerakligini ta'kidlab, "Agar haqiqatni izlashga ongli va ongsiz ravishda qandaydir cheklovlar qo'yilsa, falsafa qo'rquv ta'sirida falaj holatga tushadi" [2; 1013-b.], degan xulosani ilgari surgan. Ushbu fikr tahlil faqat tushunchalarni aniqlashtirishdan iborat jarayon emas, balki avvaldan qabul qilingan dogmatik tushunchalar, stixiyali mulohazalar, aniq asosga ega bo'lmagan xulosalarni so'roqlovchi tanqidiy faoliyatning deochasi sifatida ham namoyon bo'lishini anglatadi.

Bizning fikrimizcha, tahlilning mohiyati va uning bilishdagi metodologik funksiyasiga oid yuqorida keltirilgan falsafiy yondashuvlar uni predmet yoki voqea-hodisani fikran qismlarga ajratish orqali tushunishga yo'naltirilgan falsafiy faoliyat sifatida cheklanmasligini bildiradi. Darhaqiqat, tahlil keng qamrovli falsafiy faoliyat bo'lib, bir tomondan, u insonga xos kognitiv jarayonni anglatasa, boshqa tomondan, tushunchalarni aniqlashtirish, chegaralash va asoslashga xizmat qiluvchi metodologik vosita vazifasini ham bajaradi.

Xulosa. Falsafa tarixida tahlil tushunchasining turli talqinlari kuzatilgan. Agar an'anaviy falsafada u aksariyat hollarda sintez tushunchasi bilan uzviy bog'liqligi tan olinsa, analitik falsafiy yo'nalish ta'sirida u mustaqil falsafiy-metodologik muammo sifatida tadqiq etilgan. Aksariyat faylasuflar tahlil vositasida bilish obyektini sifatida belgilangan predmet yoki tushunchaning ichki tarkibi, asoslari va chegarasini aniqlash orqali uning mazmunini ochish va nazariy anglash imkonini yaratishni nazarda tutganlar.

Tahlil metodologiyasining hozirga qadar to'liq hal etilmagan paradoksal jihati mavjud. Unga ko'ra, agar tahlil jarayonida analizans (tahlil qiluvchi) analizandum (tahlil qilinayotgan tushuncha)ni takrorlasa, u o'zining evristik qimmatini yo'qotadi. Agar analizans analizandumdan butunlay farqlansa, tahlil tushunchaning mazmunini ochish emas, balki uning mazmunini o'zgartirib qayta talqin qilishga ehtiyoj yuzaga keladi. Demak, tahlildagi eng murakkab jihat analizandumni takrorlamaslik va ayni paytda undan uzilib qolmasdan mazmunini ochib berish vazifasi muhim.

ADABIYOTLAR

1. Горбатов В. В. Тождество, истина и парадокс анализа // Язык философии: традиции и новации: материалы межвузовской конференции, Москва, 7–8 декабря 2010 г. – Москва, 2010. – С. 35–36.
2. Рассел Б. История западной философии / пер. с англ.; подгот. текста и науч. ред. В. В. Целищева. — Москва: Издательство АСТ, 2016. — 1013 с.
3. Фреге Г. Логика в математике // Избранные работы. – Москва: ДИК, 1997. – С. 103–104.
4. Alonzo Church // The Stanford Encyclopedia of Philosophy. – URL: <https://seop.illc.uva.nl/entries/church/> (murojaat qilinan sana: 08.07.2026).
5. Carnap R. Logical Foundations of Probability. – Second Edition. – Chicago: The University of Chicago Press, 1962. – 613 p.
6. Elkind L. Conceptual Engineering or Revisionary Conceptual Analysis? The Case of Russell’s Metaphilosophy Based on Principia Mathematica’s Logic // Dialogue: Canadian Philosophical Review / Revue canadienne de philosophie. – 2021. – Vol. 60, No. 3. – P. 458.
7. Langford C. H. The Notion of Analysis in Moore’s Philosophy // The Philosophy of G. E. Moore / ed. by P. A. Schilpp. – Evanston and Chicago: Northwestern University, 1942. – P. 323.
8. Moore G. E. A Reply to My Critics // The Philosophy of G. E. Moore / ed. P. A. Schilpp. – Evanston and Chicago: Northwestern University, 1942. – P. 661–666.
9. Nado J. Truth in philosophy: a conceptual engineering approach // Asian Journal of Philosophy. – 2024. – Vol. 3, Article 21. – P. 3.
10. White M. G. The Paradox of Analysis // The Journal of Symbolic Logic. – 1948. – Vol. 13. – No. 3. – P. 151–153.
11. Zalta, Edward N. Gottlob Frege // The Stanford Encyclopedia of Philosophy (Spring 2002 Edition). – URL: <https://plato.stanford.edu/archives/spr2002/entries/frege/> (murojaat qilinan sana: 08.07.2026).